

**O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN  
OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

*Abdukarimov Xurmat Matyakubovich  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada mahalliy byudjetlar daromad bazasini shakllanishi, unda yer solig'i va mulk solig'ining ahamiyati va ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan. Yer hamda mulk solig'ining mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan tartib va amaliy tavsiyalar taklif etildi. Bundan tashqari, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

**Kalit so'zlar:** yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish faqat barqaror soliq tizimi mavjud bo'lganda mumkin bo'lib, uning ajralmas elementi sifatida jismoniy shaxslarga soliqlar iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarida davlat aralashuvninig iqtisodiy faolligi zaruriyatini va soliq to'lovchining soliqlar shaklda ma'lum darajadagi pul mablag'larini to'lovini real imkoniyatlarini muhim tomonlarini hisobini oladigan byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishni talab qiladi. Jumladan, resurslardan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlarga ustuvorlik berilishi orqali ulardan foydalanishni tartibga solish mexanizmi yaratildi va bu jarayon davrga mos ravishda takomillashib bormoqda. Resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm elementlarining eng muhimi – bu albatta soliqqa tortishdir. Bu o'z navbatida turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish uchun zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Hozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida budget daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma'muriyatçiligidagi takomillashtirish orqali mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishi uchun qo'shimcha zahiralarni topish va jalb qilish nafaqat mahalliy byudjetlarni to'ldirish, balki zamonaviy huquqiy maklonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, turli ijtimoiy yo'naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasidir. Mulk huquqi xususiy mulk bo'lgan mamlakatlarda xususiy mulk huquqi va yer qiymatining kombinatsiyasi ikkita ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi: yerning (yoki boylikning) qiymati va bu boylikning teng taqsimlanmaganligi, foydalanilmagan yerning qiymatini undirish vositalaridan biri soliqdir (Wyatt,2019).

Yer solig'i - bu obodonlashtirilmagan yerkarning qiymatidan kelib chiqqan holda yer egalaridan olinadigan davriy soliqdir. Yer solig'i boyliklarga soliq solish va yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirishning tejamkor vositasidir. Ko'pgina adabiyotlarda nazariy jihatlarga asosiy e'tibor qaratilgan, ammo ularning aksariyati bunday soliqni qanday mukammal joriy qilish mumkinligi haqida batafsil ma'lumotga ega emas (Hughes va boshqa. 2020).

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Toshkulov (2021) fikricha qishloq xo'jaligini soliqqa tortish doimiy ravishda isloh qilinmoqda, lekin bu uning mukammalligini kafolatlamaydi. Soliq qonunchiligining beqarorligi, murakkabligi va noaniqligi, investitsiya, innovatsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun soliq mexanizmlaridan kam foydalanish va ishlab chiqarishni kengaytirish soliq tizimining qishloq xo'jaligida o'z vazifalarini to'liq bajarishga imkon bermaydi.

Vlasovaning (2015) fikriga ko'ra "Mahalliy byudjetlarning daromadli salohiyati davlat-xususiy sheriklikni yanada faolroq amalga oshirishni, soliq imtiyozlarini joriy etish va byurokratik jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish orqali biznes yuritishni iloji boricha osonlashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini kamaytirishni va ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladi. Natijada mintaqadagi byudjet siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi. Mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks qaror uzoq muddatli istiqbolda butun mintqa iqtisodiyoti uchun kuchli ijobjiy ta'sir ko'rsatadi".

Seleznev, Dotsenkolarning (2016) fikriga ko'ra "mahalliy byudjetlarning real moliyalashtirish taqchilligi muammosi bilan bog'liq holda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish tizimi - muhim makroiqtisodiy vazifa", deb hisoblaydilar. Serebryakova (2017) ta'kidlaganidek, "Hududlarni moliyaviy ta'minlash mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini isloh qilishning eng qiyin va dolzarb masalalaridan biri", deb ta'kidlaydi.

Suxarev (2020) barcha darajadagi byudjet daromadlari manbalarini tubdan o'zgartirish, byudjet mexanizmini rag'batlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarni joriy etish tizimini ilgari suradi.

Xudoyqulov (2019) o'z tadqiqotlarida ekonometrik usullar orqali davlat byudjeti jami daromadlarining 2018-2023 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan, Agzamov (2019) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini 2019-2023 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan, Pardaev (2018) davlat byudjeti daromadlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan, Urmonov (2019) 2018-2020 yillarga mo'ljallangan yagona soliq to'loving soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan.

Xaydarov (2020) fikricha mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini ko'paytirish va viloyatlarda yangi ish o'rinalarini yaratish uchun xorjiy investorlarni jalb etishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo'yicha xorijiy investorlar qanday turdagи tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro'yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo'l borligi ko'rsatilish lozim.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llarini ta'minlashga

qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyoziy tahlil qilingan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

So'nggi yillarda byudjetlar daromadlari byudjetlar xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya'ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirdorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirdorlik sub'ektlarining soliq yukini kamaytirish maqsadida qabul qilingan.

Farmonda 2022-yil 1-iyuldan bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish ob'ektlariga (foydalanilmayotgan ob'ektlar) hamda ushbu ob'ektlar bilan band bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llash, soliq imtiyozlari va preferensiyalarning amal qilishini to'xtatish tartibi (ta'sirchan soliq mexanizmi) bekor qilinganligi qabul qilingan. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan ob'ektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo'lgan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi, soliq qarzini undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlari tugatilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga asosan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari tomonidan amalgalashtirilmoqda. Jismoniy shaxslar bo'yicha jami 2177 nafar soliq to'lovchilarining qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizm bo'yicha 502,3 mlrd. so'mlik soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish to'g'risidagi sud va soliq organlari qarorlari Majburiy ijro byurosi ish yurituviga olingan.



## **1-rasm. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishni tashkil qilish choralarini tarkibiga**


<sup>1</sup> Mualif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jismoniy shaxslarning soliq qarzlarini majburiy undirishda 1-rasmdaga sxemaga asosan soliq to‘lovchi jismoniy shaxs soliq qarzdorligi bo‘yicha soliq organlarida axborot-kommunikatsiya texnlogiyalari boshqarmasida soliq qarzi hosil bo‘ladi va soliq organlarida soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi tomonidan soliq qarzi 1 mln.so‘mdan yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar ro‘yxati shakllantiriladi. Soliq to‘lovchiga berilgan to‘lov xabarnoma karishogini taqdim etish to‘g‘risidagi bildirishnoma beriladi va soliq organida jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi tomonidan to‘lov xabarnoma koreshogini taqdim etiladi. Soliq qarzini undirish yuzasidan arizani fuqarolik sudiga hamda nusxasi soliq to‘lovchiga taqdim etiladi. Fuqarolik sudidan qabul qilingan ariza o‘rganib chiqilib sud buyrug‘i chiqariladi. Agar arizada kamchiliklar aniqlansa kamchiliklar ko‘rsatilgan holda ariza rad etiladi. Rad etilgan ariza soliq organlari tomonidan kamchiliklar bartaraf etilib ariza qayta tayyorlanadi va qaytadan fuqarolik sudiga kiritiladi. Sud buyruqi soliq organlari orqali Majburiy ijro buyurosiga ijro uchun yuboriladi. Sud qarori va ijro varaqasini Majburiy ijroga yuboriladi. Majburiy ijro buyurosi undiruvni soilq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Hozirgi kunda soliq qarzi paydo bo‘lgandan keyin uch kundan kechiktirilmay soliq organlari tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomha yuboriladi, agar mustaqil to‘lov topshiriqnomasi bankka taqdim etilmagan bo‘lsa, inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi. Soliq organining talabnomasiga berilgan sanadan boshlab o‘n kalendar kun ichida yuridik shaxs o‘z e’tirozlarini bildirishi lozim. E’tiroz bildirilmagan taqdirda tan olingan soliq qarzi sifatida e’tirof etilib, o‘n besh kalendar kun ichida soliq qarzi to‘lanmagan taqdirda soliq organining qarori bilan qarzdorning mol-mulki xatlovga olinadi. Mazkur jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha soliq qarzdorligini undirish yuzasidan 19-rasmda keltirilgan sxema asosida amalga oshiriladi. Ushbu choralar qo‘llanilgandan keyin ham soliq qarzi o‘ttiz kalendar kun ichida to‘lanmagan taqdirda, soliq organi qarzdorning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risida qaror qabul qilib, qaror ijrosini ta’minalash uchun Majburiy ijro byurosiga yuboradi hamda majburiy undiruv ishlari Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu muajburiy ijroga qaratish bo‘yicha 19-rasmda keltirilgan shaklda amaldagi normativ-huquqiy hujjat asosida joriy etilgan. Soliq organlari qarorlari ijrosi Majburiy ijro byurosi tomonidan ikki oy davomida ijrosi ta’minalishi zarur. Qarzdorning mol-mulki va boshqa aktivlari mavjud emasligi sababli soliq qarzini undirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli Majburiy ijro byurosi tomonidan soliq organlari qarorlari qaytarilganda, soliq organi tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga ariza kiritiladi.

Soliq to‘lovchilarni tugatish jarayonida qarzdorning barcha majburiyatlarini jamlanib, mol-mulk va daromadlarni aniqlash ishlari olib boriladi. Soliq qarzi va boshqa majburiyatlarini uzishga qarzdorning mol-mulkulari va boshqa aktivlari yetarli bo‘lmasa, to‘lanmasdan qolgan soliq qarzi umidsiz deb topiladi hamda sud qarori bilan qarzdor faoliyati tugatiladi va soliq qarzi hisobdan chiqariladi. Yuridik shaxsning mol-mulkulari soliq qarzini qoplashga yetarli bo‘lmagan taqdirda, soliq organi qoplanmagan soliq qarzini korxonaning rahbari, ta’sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish yuzasidan sudga ariza kiritiladi. Shundan so‘ng, sud qarori asosida korxonaning soliq qarzini rahbari, ta’sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish ishlari Majburiy ijro

byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Ijro harakatlarini olib borish davrida rahbar, ta'sischi (muassis)larning ish haqi daromadlariga qaratish, ularning O'zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqishiga taqiq solish kabi majburiy undiruv choralarini qo'llanilishi mumkin.



**2-rasm. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishda sud organlariga hujjatlar taqdim etish choralar<sup>2</sup>**

Soliq organlari tomonidan joriy yilning davomida soliq qarzi undirilishini tashkil etish yuzasidan soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnomalar yuboriladi, yuborilgan talabnomalar asosida qarzdordan soliq qarzi qisqartiriladi, soliq organlarining qarzdorning soliq qarzini undirish yuzasidan mol-mulkni xatlash to‘g‘risida qarori asosida mol-mulklar xatlovga olinadi, soliq organlari tomonidan qarzdorlarning bank hisobvaraqlari inkasso topshiriqnomalari qo‘yiladi va inkasso topshiriqnomalari bilan qarzdorlarning soliq qarzi undiriladi, qarzdorning xorijiy valyuta mablag‘lari hisobvaraqlari banklariga taqdimnomalar yuboriladi, soliq organlari qarzdorning soliq qarzi undiruvini mol-mulkiga qaratish haqida qarorlari qabul qilinib, Majburiy ijro organlariga yuboriladi, soliq organlari qarori asosida Majburiy ijro organlari tomonidan soliq qarzi undiriladi, majburiy ijro organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini undirish imkoniyati yo‘qligi sababli soliq organlari qarori ijrosiz qaytariladi, soliq organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini to‘lovga qobiliyatsizlik deb topish to‘g‘risida suldarga arizalar kiritiladi, sud qarorlari asosida qarzdorning soliq qarzi undiriladi va subsidiar javobgarlik asosida qarzdorning soliq qarzini korxona rahbari, ta’sischi (muassis)larining shaxsiy mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risida suldarga arizalar kiritiladi.

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida 84 ta faoliyat turi bo‘yicha

<sup>2</sup> Mualif tomonidan ishlab chiqilgan.

davlat ro‘yxatidan o‘tib ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin<sup>3</sup>. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tovar aylanmasi yuz million so‘mgacha qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i, yuz million so‘mdan bir milliard so‘mgacha aylanmadan olinadigan soliq, bir milliard so‘mdan oshganda umumbelgilangan tartibda foyda va QQS to‘laydi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qatiy belgilangan soliqlar Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Misol uchun: oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish Toshkent shahri 750 000 so‘m, Nukus shahri va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlar 600 000 so‘m, boshqa shaharlar 300 000 so‘m, Boshqa aholi punktlari 200 000 so‘mni tashkil etadi. Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari uchun yuk ko‘tarish quvvatiga qarab Respublika bo‘yicha bir hil stavka belgilangan 3 tonnagacha 150 000 so‘m, 3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 225 000 so‘m belgilangan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bir nechta faoliyat turlarini amalga oshirganda, ular har bir faoliyat turi uchun belgilangan soliq miqdorini, ikki yoki undan ortiq joylarda faoliyatni amalga oshirishda esa ushbu joylar uchun belgilangan yuqori stavkada to‘laydilar.

Yakka tartibdagi tadbirokrlar tomonidan ijtimoiy soliqni kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida va faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hamda oilaning boshqa a’zolari tomonidan (bundan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar mustasno) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida, shuningdek, qishloq tumanlarida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan "Hunarmand" uyushmasi a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari tomonidan o‘z faoliyatining dastlabki ikki yilda - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to‘lanadi<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda, tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to‘lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir barvari miqdorida ixtiyoriy tartibda, "Hunarmand" uyushmasining a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari va "Usta-shogird" mакtablari o‘quvchilari - ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda, shuningdek, soliq to‘lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to‘lanadi. Dehqon xo‘jaliklari, shuningdek maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to‘laydi, boshqa a’zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori. www.lex.uz

<sup>4</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son, 384-modda

shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi<sup>5</sup>.

Yer solig'i stavkasini xisoblab chiqarish tartibi bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 hektar uchun mutlaq o'lchamda Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi va tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida belgilaydi<sup>6</sup> va ushbu tartibda aniqlanadi. Misol uchun Toshkent shaxrining Yashnabod tumani Olmos MFYga tuman Xalq deputatlari kengashi tomonidan 0,7 kamaytiruvchi koeffitsient qo'llanilishi natijasida soliq stavkasi 29,0 mln. so'mdan 14,4 mln.so'mga kamaytirilgan. 2019-yilgi soliq siyosati konsepsiyasida yakka tartibdagi tadbirkorlarning o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik yoki joriy yil davomidagi aylanmasi (yalpi tushumi), 100 mln.so'mgacha bo'lganda qat'iy belgilangan soliqni, 100 mln.so'mdan 1 mlrd.so'mgacha bo'lganda yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to'lovini, 1 mlrd.so'mdan oshganda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib, yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tgan holda umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari nazarda tutilmoqda. 2019-yildan boshlib, 100 mln.so'mgacha tovar aylanmasini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun amaldagi qat'iy soliq stavkasi 20-35 foizgacha kamaytirilgan holda qat'iy summalarda qat'iy belgilangan soliq joriy etilmoqda. Masalan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2018-yilda har oyda eng kam ish haqining 7 baravari miqdorida ya'ni 1 205,6 ming.so'm qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab, har oyda 800 ming.so'm miqdorida (33 foizga kamaygan) qat'iy summada qat'iy soliq to'lovini amalga oshirishi belgilanmoqda.

### **Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:**

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini oshirish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda mahalliy byudjetga biriktirilgan daromadlar turlari shuningdek qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq; Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umum davlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'limganda 3 yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

<sup>5</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son, 408-modda

<sup>6</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son, 424-429-moddalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Cathy Hughes, Sarah Sayce, Pete Wyatt (2020) Implementing a land value tax: Considerations on moving from theory to practice. Land Use Policy 8 February. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837719315704>. Peter Wyatt (2019) From a property tax to a land tax – who wins, who loses?. Land Use Policy 31 August. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837719307975>.

Агзамов А.Т. (2019) Жисмоний шахсларни солицда тортиш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Б.17-22.

Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015) Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в россии на примере калужской области//Креативная экономика. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.

Селезнев А., Доценко Н. (2016) Доходный потенциал местных бюджетов и его общегосударственное значение // Экономист. № 9. - С. 12-22.

Серебрякова О.В. (2017) Финансовая стабильность муниципальных образований как приоритет в развитии бюджетной и налоговой политики на местном уровне // Региональная экономика: теория и практика. № 11. - С. 126-131.

Худойкулов С.К. (2019) Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Б. 14-16; 20-21; 28-29.

Хайдаров Н.Х. “Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар”. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий журнали. 2-сон.

J.Maxmadustov. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Нормурзаев, У. (2024). ЎЗБЕКИСТОНДА 2024 ЙИЛГИ СОЛИҚ ҚОНУНЧИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИГА КИРИТИЛГАН АСОСИЙ ЎЗГАРИШЛАР ТАҲЛИЛИ. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(2), 522–531. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss2-pp522-531>

Нормурзаев, У. (2024). Ўзбекистонда солиқ сиёсатини такомиллаштиришда худудлараро солиқ инспекцияси ўрни ва аҳамияти. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(4), 457–467. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp457-467>

Normurzayev Umid Xolmurzayevich, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari, YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT: Том 1 № 1 (2024):«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali

Нормурзаев, У. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БЎЙИЧА ТАҲЛИЛ ВА ТАКЛИФ. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(7), 329–336. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp329-336>

Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёzlари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. Iqtisodiyot Va ta’lim, 24(1), 334–339. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a51](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51)

Нормурзаев У. Х.. Солиқ имтиёzlарининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Монография. Т.: «IQTISODIYOT»- 2023. 242 бет. 8

Нормурзаев У. Х. Солиқ имтиёzlарининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00. 07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2022.

Normurzaev, U. (2022). Hukumatimiz tomonidan soliq ma’murchiligi bo‘yicha 2018-2022 yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10(5), 325-330.

Normurzaev, Umid K. "Amendments and Additions to the Tax Code of the Republic of Uzbekistan on Tax Privileges in 2021." European Scholar Journal, vol. 2, no. 5, 2021, pp. 155-159.